

INTELLEKTUAL TEST SINOVLARINI O‘TKAZUVCHI TELEGRAM BOT YARATISH

Ro‘ziqulova Maqsuda Abriy qizi

TATU Qarshi filiali “Dasturiy injiniring ” kafedrası assistenti

ANNOTATSIYA

Ushbu maqolada odamlarning intellektual salohiyatini aniqlash va ularga qaysi jihatiga e’tibor berish va o‘z ustida ishlashda qanday yo‘llardan foydalanishga ko‘maklashuvchi Intellektual test sinovlarini o‘tkazuvchi telegram bot yaratish bo‘yicha nazariy va amaliy ma’lumotlar keltirilgan. Bitiruv malakaviy ishini bajarish davomida Intellektual va Expert tizimlari haqida nazariy ma’lumotlar hamda sun‘iy intellect tizimlari bo‘yicha Python dasturlash tili dasturlash tillari orasida Python dasturlash tilining afzallik tomonlari keltirilgan. Telegram bot yaratish va API orqali Python dasturlash tilida qo‘rilgan dasturiy ilova bilan bog‘lash bo‘yicha aniq ko‘rsatmalarni ishlab chiqilgan.

Kalit so‘zlar: *sun‘iy intellekt, phyton, telegram bot, interfeys.*

АННОТАЦИЯ

В данной статье представлена теоретическая и практическая информация о том, как создать телеграм-бота, который проводит IQ-тесты, помогающие людям выявить их интеллектуальный потенциал, на какие аспекты обратить внимание и как их использовать в своей работе. Теоретические знания об интеллектуальных и экспертных системах, а также о преимуществах языка программирования Python среди систем искусственного интеллекта. Язык программирования Python представлен в ходе выполнения диссертации. Разработаны специальные инструкции по созданию бота Telegram и связыванию его с приложением, построенным на языке программирования Python, через API.

Ключевые слова: *искусственный интеллект, phyton, телеграм-бот, интерфейс.*

ABSTRACT

This article provides theoretical and practical information on how to create a telegram bot that conducts IQ tests that help people identify their intellectual potential, what aspects to pay attention to and how to use them in their work. Theoretical knowledge about intelligent and expert systems, as well as about the advantages of the Python programming language among artificial intelligence systems. The Python programming language is presented during the dissertation.

Special instructions have been developed for creating a Telegram bot and linking it to an application built in the Python programming language via the API.

Key words: artificial intelligence, fiton, telegram bot, interface.

KIRISH

Hozirgi kunda davlat tomonidan moliyaviy ta'minlanadigan "Elektron vositalar" chora-tadbirlar dasturi asosidagi "AKT sohasi o'sishini tahlillari va ularni ijtimoiy-iqtisodiy sohada qo'llanilishi" loyihasini amalga oshirilishi o'ta muhim o'rin tutadi. Ushbu loyihani asosiy maqsadlari qilib quyidagilarni sanab o'tish mumkin:

- AKT sohasi tuzilishini tavsiflari.
- AKT sohasining xalqaro va O'zbekistonda rivojlanishdagi intilishlari va ularni ommaning ijtimoiy-iqtisodiy sohasiga ta'siri.
- AKT sohasining O'zbekiston va xalqaro bozordagi rivojlanishini solishtirish, AKT ni ijtimoiy-iqtisodiy sohada ishlatilishi tahlillari.

AKT sohasini hukumat, hududiy va o'z-o'zini boshqarish organlari darajasida rivojlantirish uchun ijtimoiy-iqtisodiy yechimlar boshqaruvini qo'llab-quvvatlash maqsadida tavsiya va ko'rsatmalarni ishlab chiqishdan iboratdir.

MUHOKAMA

Robotlar (yoki botlar) – telegram tarmog'ida maxsus akkauntlar bo'lib, ular xabarlarni avtomatik tarzda qayta ishlovchi va jo'natuvchi yozilgan kodlar majmuidir. Botlar dasturchilar tomonidan tuziladi va ularning serverlarida ishlaydi.

Xo'sh ular nima uchun kerak? Botlar dasturchi tomonidan o'ylangan barcha amallarni amalga oshira oladi. Ular yordamida elektron (aqlli) uyni boshqarish, veb-sahifangizga foydalanuvchilarni ro'yxatdan o'tkazishi, yangiliklarni tarqatishi va umuman olganda ularning foydalanish darajasi chegaralanmagan. Ulardan foydalanish uchun Telegram tarmog'ida akkaunt kerak bo'ladi. Endi dinamik tartibdagi Telegram botini yaratish texnologiyasi haqida so'z yuritaylik. Buning uchun Telegram tomonidan sizga maxsus token – kriptografik kalit beriladi. Bu kalit yordamida dasturchi foydalanuvchilardan so'rov uchun ma'lumotlarni qabul qiladi va kerakli tartibda javob yo'llaydi. Telegram API (Application Programming Interface – dasturning amaliy interfeysi) python dasturlash tilini qo'llab quvvatlaydi. Yuqorida nomlari keltirilgan dasturlash tillarida APIlar biridan foydalanilgan holda, TATU Qarshi filialining marketing bo'limi uchun maxsus telegram boti yaratildi. Dasturiy ta'minot tizimlari fanidan o'quv materiallarini to'g'risidagi ma'lumotlarni aniqlash uchun talabalarning anchagina vaqtlari ketadi. Bunday turdagi muammolarning oldini olish maqsadida Telegram messengerida bot yaratib talabalarga o'zining to'lovlarini

ko'rish imkoni amalga oshirildi. Agarda siz yoki sizning yaqinlaringiz shartnoma asosida tahsil oluvchi bo'lsa bu bot xizmatidan foydalanishingiz mumkin bo'ladi. Bot orqali siz qancha to'lov to'laganigiz va yana qancha to'lashingiz kerakligi haqida ma'lumot olishingiz mumkin.

1. Ijtimoiy tarmoqlarni ta'lim jarayonida qo'llash
2. Telegram ijtimoiy tarmog'ida bot yaratish va undan ta'lim jarayonida foydalanish
3. Intellektual test sinovlarini o'tkazuvchi telegram bot yaratish.
4. Foydalanuvchilarni ijtimoiy tarmoqlardan oqilona foydalanishini ta'minlash.

5. Veb texnologiyasi va dasturiy vositalar asosida oliy ta'limda ta'lim berish faoliyatiga zamonaviy texnologiyalar, dasturiy ta'minotlar bilan yordamlashish.

Hozirgi kunda og'ir ishlarni yengil qilishda, ma'nan mushkul va kuchli aqliy zo'riqishni talab qiluvchi ishlarni osonlashtirish va eng muhimi xavfsizlashtirishda ular yaqin yordamchimizga aylanib bormoqda. Yorqin misol sifatida aeroportlarda parvozlarni muvofiqlashtirishga xizmat qiluvchi axborot-tahlil tizimlarini keltirish mumkin. Ular, mavjud meteorologik vaziyat, samolyotlarning etib kelish va uchib ketish jadvali, masofa, tezlik va shunga o'xshash yuzlab parametrlarni umumlashtirgan holda, umumiy vaziyatni nazorat qiladi hamda, insonga - muhandisga eng maqbul rejim haqida ma'lumotlarni taqdim etadi. Samolyotlarning o'zidagi avtopilot imkoniyatini ham shu qatorga qo'shish mumkin. U parvoz davomida bimalol uchuvchini o'rnini egallab, ulkan laynerni boshqarib borishi mumkin. Bunday tizimlar odatda ekspert tizimlar ham deyiladi. Lekin nima bo'lganda ham, ular dasturchilar tomonidan avvaldan belgilangan va mashina xotirasiga yozulgan muayyan algortim doirasida ishlaydi xolos. Aytaylik, algoritmda ko'zda tutilmagan favqulodda vaziyatlarda mustaqil ijodiy (kreativ) noan'anaviy qaror qabul qila olmaydi. Baribir uchuvchi avtopilotdan voz kechib, o'z bilimi va tajribasiga tayanadi. Shunday ekan, hozirgi kundagi eng yuksak nou-xau timsoli bo'lgan eng mukammal intellektual mashinalarini ham inson kabi ong va tafakkur darajasiga ega deb bo'lmaydi. Ong va tafakkur esa intellektning asosidir. Shunga ko'ra, sun'iy intellekt atamasi, nazarimda biroz oshrib yuborilgandek go'yo. Zero, sun'iy mulohaza yuritadigan, to'g'rirog'i avtomatik tahlil qiladigan mashinalar, balki tahlilni bizdan ko'ra tezkorroq bajarar, balki ularning xato qilish koeffisienti biznikdan pastdir. Lekin ularda ijodiy yondoshuv, hissiyot, hamda avvaldan biror narsani ko'zlab ish tutish hislati umuman mavjud emas. Ustiga ustak, shunday sun'iy intellektni ham, siz bilan bizga o'xshagan inson yaratgan!

Endi qiziq bir faktga e'tiboringizni qaratmoqchiman. Ma'lumki, har qanday kompyuter, demakki, sun'iy intellektga ega mashina, ikkilik sanoq tizimi asosida ishlaydi. Bu haqidan maktab informatika kursida etralicha ma'lumot beriladi. Atiga ikkita raqamdan iborat sanoq tizimida esa, muayyan algoritmlarni bajarishda o'ziga xos cheklov-chegaralar yuzaga keladi. Xossatan, haqiqiy sonlar bilan ishlashda, yoki taqribiy hisoblashlarda ikkilik sanoq tizimi yaramaydigan vaziyatlar yuzaga keladi. 1991-yilda matematik olim Devid Stautmaer 18 ta turli xildagi hisob-kitob amaliyotlarni kompyuter dasturi yordamida bajarib, ularning barchasida natija noto'g'ri chiqqanini, ya'ni, kompyuter (sun'iy intellekt) noto'g'ri ishlaganini isbotlab berdi. Demak, sun'iy intellekt-kompyuter hamma masalani ham to'g'ri hal qila olmasligining jiddiy ilmiy asosi bor ekan. Shu asosga ko'ra, qo'rqmay aytish mumkinki, sun'iy intellekt hali-beri tabiiy intellektga dov bera olmaydi. Uning ayrim xususiy hollarda (asosan matematikada) insondan o'zib ketishi esa, tezkorlik xossasi evaziga xolos... Fikrlaydigan mashina, yoki sun'iy intellekt esa, hozircha fantast yozuvchilar, hamda entuziast dasturchilarning orzusi o'laroq qolib ketmoqda.

XULOSA

Ushbu maqolada odamlarning intellektual salohiyatini aniqlash va ularga qaysi jihatiga e'tibor berish va o'z ustida ishlashda qanday yo'llardan foydalanishga ko'maklashuvchi Intellektual test sinovlarini o'tkazuvchi telegram bot yaratish bo'yicha nazariy va amaliy ma'lumotlar keltirilgan. Bitiruv malakaviy ishini bajarish davomida Intellektual va Expert tizimlari haqida nazariy ma'lumotlar hamda sun'iy intellect tizimlari bo'yicha Python dasturlash tili dasturlash tillari orasida Python dasturlash tilining afzallik tomonlari keltirilgan. Telegram bot yaratish va API orqali Python dasturlash tilida qo'rilgan dasturiy ilova bilan bog'lash bo'yicha aniq ko'rsatmalarni ishlab chiqilgan.

REFERENCES

1. Abduqadirov A.A. Masofali o'qitish nazariyasi va amaliyoti. monografiya /A.A.Abduqadirov, A.X.Pardayev; red. M.Sodikova. - T.: O'zbekiston Respublikasi fanlar Akademiyasi " FAN " nashriyoti, 2009. – 145 b.
2. Bekmurodov Q.A., Axborot - tanuvchi tizimlar: Ma'ruzalar kursi(2-nashri). - Samarqand: TATU Samarqand filiali, 2012. - 159 bet.
3. Bekmurodov Q.A., Mamaraufov O.A., Bekmurodov D.Q. Axborottanuvchi tizimlar fanidan amaliy va laboratoriya mashg'ulotlar uchun uslubiy qo'llanma. - Samarqand: TATU Samarqand filiali, 2012. 162 bet.

-
4. Parpiyev A, Maraximov A, Hamdamov R, Begimkulov U, Bekmuradov M, Tayloqov N. Elektron universitet. Masofaviy ta'lim texnologiyalari O'zME davlat ilmiy nashriyoti. -T.: 2008, 196 b.
 5. Tojiyev R.J., Sultonov Sh.D., Polvonov F.Yu., Aripov N.M. Farg'ona politexnika institutida masofaviy ta'limni tashkil etish /«Masofadan o'qitish texnika va texnologiyasi» Xalqaro ilmiy-amaliy konferensiyaning ma'ruzalar to'plami. Toshkent 13-14.05.02. T.2002. 31b.